

## O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA SUV KONSEPTINING TALQINI

**O‘rinova Sayyora Xolmirzayevna**

Namangan davlat universiteti lingvistika(o‘zbek filologiyasi)

1-kurs magistri

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada suv koseptining tasnifi, turlari, suv to‘g‘risida olib borilgan adabiyotlar tahlili hamda suv kosepti qatnashgan maqollar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** shaffof, muz va bug‘, bog‘-u bo‘stonlar, suvchi–zargar, xudoga yaqin, oqqan soy, soy suluvi.

Insoniyat yaratilibdiki, uning hayoti, tirikligi, borliq olamda mavjud bo‘lishi bevosita suv bilan bog‘liqdir. Yer yuzidagi jamiki maxluqot va mavjudotlar ham suv bilan tirikdir. Suvni hayotimiz manbaiga qiyos etamiz. Bu noyob ne‘matni qadim ajdodlarimiz ham muqaddas bilishgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak bejizga xalqimizda suv bor yerda hayot bor maqoli qo‘llanmagan.

**Suv 1** Vodorod bilan kislorodning ximiyaviy birikmasidan iborat tuzsiz shaffof suyuqlik; tabiatda muz va bug‘ holida ham uchraydi, barcha tirik organizmlarning va ko‘pgina moddalarning tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Qor suvi.Turg‘un suv. Zilol suvlar, eram kabi bog‘-u bo‘stonlar, mening sovg‘am koshonalar, oltin tuproqlar. G‘ayratiy.<sup>1</sup>

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida suv so‘zi bilan bog‘liq ko‘plab maqollar mavjud. Suv so‘zi o‘zbek xalq maqollarida turli ma‘no ottenkalarda qo‘llanilgan.Quyida suv so‘zi ishlatilgan maqollardan namunalar keltiramiz: suv bilan ekin o‘sar,tarbiya bilan–odam. Suv bir joyda turaversa ,sasir. Suv bir loyqalanmay tinmas.Suv birlashsa daryo bo‘lar, el birlashsa –olomon. Suv bor yerda hayot bor. Suv boshidan bulg‘alanar.Suv–yorug‘lik.

Suv–dehqonning qoni, yer–uning joni.Suv –zar, suvchi–zargar. Suv ichadigan qudug‘inga tupurma.Suv ichirmasga sut ichir.Suv keldi–nur keldi.Suv keltirar mard kishi, ekin ekar har kishi.Suv yo‘g‘ida tayammum. Suv–oltindan aziz. Suv oqqan soyga yana suv oqar. Suv –tilsiz yov. Suv o‘z yo‘lini topar, so‘z o‘z egasini<sup>2</sup>. Suvga yaqin–xudoga yaqin kabi ko‘plab maqollar borki,ular da suv so‘zi turli ma‘nolarda qo‘llanilgan. Masalan, suv–dehqonning qoni, suv keldi–nur keldi, suv–zar, suvchi–

<sup>1</sup>Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва „Рус тили“–1981

<sup>2</sup> Ўзбек халқ мақоллари 2-том,Тошкент „Фан“ – 1981

zargar, suv–tilsiz yov kabi maqollarda metafora(o‘xshatish) qo‘llanilgan.Ularning ma‘nolarining o‘rtasida ham suv so‘zi salbiy va ijobiy ma‘noda ishlatilishiga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, suv keldi–nur keldi maqolida suvni nurga o‘xshatish bilan birga ijobiylik, ilohiylik kabi ma‘nosi bor. Suv–tilsiz yov maqolida esa suvni yovga o‘xshatish bilan birga yov, dushman kabi salbiy ma‘nosi bor. Shuningdek, suv to‘rt muqaddas unsur (tuproq, olov, havo, suv)ning biri hisoblanadi.

Suv–poklik, ilohiylik ramzi.Suv so‘zida ilohiylik ma‘no aks etishini quyidagi maqolda ko‘rishimiz mumkin: Suvga yaqin–xudo yaqin.

Ota-bobolarimiz bir turkum maqollarda „hayot suvi“ deb e‘zozlanuvchi suv insoniyat va tabiat hayoti uchun naqadar zarur, naqadar qimmatli narsa ekanligini turli tamsillar va tashbehlar vositasida bilan uqtirib, uning qadriga yetish, tejab-tergash, ifloslantirmay, toza, pokiza saqlash lozimligi yuzasidan nasihat qiladilar: “Suv–oltindan aziz”; “Suv–zar, Suvchi–zargar”; “Oy suluvi–nur, soy suluvi–suv”; “Suv keldi–nur keldi”; “Suv keldi, suv keldi, ariq to‘la nur keldi”; “Suv qatrası–oftobning zarrasi”; “El hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan”; “Ariqdan suv uzilmasa,savatdan non arimas”; “Suv yil oqar, olamga gul taqar”; “Suv taralar tuproqqa, oro berar yaproqqa”; “Tomchi suvda tol ko‘karar”; “Suvsiz yerda tol bo‘lmas, qovoqarida bol bo‘lmas”; “Suvsiz yer–mozor,suvli yer–gulzor”; “Suvsiz yer–jonsiz jasad”; “Suvsiz yerga qush qo‘nmas, o‘tsiz yerga yurt qo‘nmas”(Bunda “yurt qo‘nmas” ma‘nosi deganda o‘tmishdagi ko‘chmanchi chorvadorlar nazarda tutilgan); “Suvsiz yer–yetim, Molsiz er–yetim”; “Suvsoqning o‘yi –suvda”; “Tashnaning tushiga suv kirar”;

“Qum bor joyda suv bor,suv bor joyda jon bor” (Dasht-u biyobonlarda, qum sahrolarida yurganlarga suvsizlik, tashnalik balosidan qutulish yuzasidan shunday nasihat qilganlar.”<sup>1</sup> Yuqoridagi maqollarda suv so‘ziga turli xil so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi ma‘no anglatuvchi so‘zlar hosil bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, suv+chi shaxs oti, suv+li, suv+siz sifat, suvsa+q suvsoq sifat kabi. Suvsoq so‘zining hosil bo‘lishiga e‘tibor qaratsak, suvsa o‘zak morfemaga -q so‘z yasovchi ko‘makchi morfemani qo‘shish orqali fe‘l so‘z turkumidan sifat so‘z turkumi yasalganda q tovushining ta‘sirida a unli fonemasi o unli fonemaga almashishi kuzatiladi.Ya‘ni tovush o‘zgarish hodisasi yuz bergan. Shuningdek, biz barcha maqollarda ishlatilgan suv so‘zining talaffuziga e‘tibor qaratsak, diereza (so‘z tarkibidagi undosh tovushlarining talaffuzda tushib qolishi)<sup>2</sup> hodisasini kuzatishimiz mumkin: suv-su kabi.

<sup>1</sup> Ш.Шомақсудов, Ш.Шораҳмедов Ҳикматнома. 375-6.Тошкент–1990

<sup>2</sup> N.Uluqov Tilshunoslik nazariyasi. 89-b.Toshkent–2019

Suvni ko‘rmay, etik yechma maqoli xalqda mashhur bo‘lgan va ko‘p og‘zaki nutqda qo‘llaniladigan maqollardan biridir. Bu—qadimiy maqollarimizdan biri bo‘lib, uni 11-asrning mashhur olimi tilshunos Mahmud Qoshg‘ariy shunday izohlagan: „Bu maqol ishlarda mulohazali bo‘lishga undalgan kishilarga nisbatan qo‘llaniladi („Devonu lug‘otit turk”,3-tom). Hozir ham shu maqolni aniq-ravshan bilmay turib, unga urinma qadam qo‘yima, bir sohada mulohaza bilan, puxta o‘ylangan holda ish tut”, degan ma‘noda nasihat qilgan ma‘noda aytadilar.<sup>1</sup> Ya‘ni ushbu maqoldagi suv so‘zi o‘z ma‘nosida emas, aksincha ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan.

Suv konseptini nafaqat gaplar, so‘z birikmalar balki o‘zbek xalq maqollarida ham ko‘p uchramiz. Bu tushunchalar esa keng ma‘noga ega.

Suv konsepti haqidagi maqollar tahlil qilish mobaynida biz ko‘pgina boshqa tillardagi suv haqidagi maqollar bilan ham tanishdik. Masalan ingliz tilida:

1. If the bread is stuck, go to the water, if the water is stuck, go to the grave / If the bread is stuck, go to the water, if the water is stuck, go to the grave

2. Peaceful flowing water drowns / Peaceful flowing water drowns — Cho‘kish uchun sokin oqim (daryoda).

3. Don’t spit in the well you drink water from/Don’t spit in the well you drink water from

Rus tilida ham ko‘plab suv haqida maqollarni uchratishingiz mumkin:

- Воды — залейся, а попробуй, напейся!
- Где вода, там и беда.
- С лица воду не пить.
- Беги от той воды, что не шумит и не журчит.
- Беда, что вода.
- Без воды ни туды и ни сюды.
- Без воды и на хорошей лодке не поплывешь.
- Бывает порою, течет и вода горою.
- Вешней воды царь не уймет, вода путь найдет.
- Вода сама путь найдет.
- Вода у одного берет, другому дает.
- В тихой воде омуты глубоки.
- В воде не тонет, в огне не горит.
- В мутной воде отражение не увидишь.
- В незнакомых водах нет безопасных бродов.
- Вода и землю точит и камень долбит.
- Вода не мутит ума.

<sup>1</sup> Хикматнома китоби 378-бет.Тошкент–1990

- Вода о воде не плачет.
- Вода плотину рвет.
- Вода студёна — тело ядрено.
- Вода-то близко, да ходить склизко.
- Воды — залейся, а попробуй, напейся!
- Воды жалеть — кашу не сварить.
- Воду в ступе толочь — вода и будет.
- Вода усталости не знает.
- Выйти сухим из воды.
- В худом котле вода не держится.
- Где вода наплет, тут и ход найдет.
- Где вода, там и беда.
- Зазеваешься (зазнаешься) – воды нахлебаешься.
- Из ворот да в воду (С корабля на бал).
- Как рыба без воды.
- Лучше вода в радости, чем брага в печали.
- Лучше воду пить в радости, нежели мед в кручине.
- Лучше хлеб с водой, чем пирог с бедой.
- Мелкая вода громче шумит.
- На большой воде и камни всплывают.
- Покой пьет воду, а беспокойство — мёд.
- Полая вода снесет ворота.
- Посмотрись в воду на свою природу.
- Пролитую воду не соберешь.
- Против воды тяжело плыть.
- Решетом воду мерить – потерять время.
- Решетом воду не носят.
- С лица воду не пить.
- Свадьба скорая – что вода полая.
- Сколь воду ни варить, все вода будет.
- Стоячая вода гниет.
- Хлеб да вода — крестьянская еда.
- Что с гуся вода.
- Чтобы рыбку съесть, надо в воду лезть.
- Капля воды крупица золота.
- Не зная броду, не лезь в воду.
- В большой воде и рыба большая.
- Куда вода пошла, там и русло будет.

Ko‘rinib turibdiki, suv bu hayotimizdagi oddiy hodisadir va u qanday ulkan kuchga ega! Ma‘lum bo‘lishicha, hayot birinchi marta suvda paydo bo‘lgan va suvsiz yashsh mumkin emas. Va u ulkan turbinalarni qanday aylantiradi va uning qulashi kuchi milliardlab kilovatt-soat elektr energiyasiga aylanadi! Suv haqidagi bilimlar, tabiat sirlari va sirlarini ochish - bularning barchasi ushbu sahifada to‘plangan suv haqida, suv haqidagi ezgu maqsadli va hikmatli maqollarni aks ettiradi.

Maqollar sodir bo‘layotgan voqealarning mohiyatini 2-3 so‘z bilan mukammal ifodalaydi. Bu qisqa hikmatlarda ko‘p avlodlarning xalq hikmatlari mavjud. Maqollar va maqollarning ma‘nosi har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri va aniq ifodalanmaydi - ba‘zida uni to‘g‘ri tushunish uchun qandaydir hayotiy vaziyatni tasavvur qilish kerak. Maqol va matallar bilan nutq yorqinroq, rang-barang, boyroq!

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Москва „Рус тили“—1981
2. Ўзбек халқ мақоллари 2-том .Тошкент „Фан“—1981
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш., „Хикматнома“ Тошкент—1990
4. Uluqov N., Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent—2019
5. Karamatova M., Karamatov H.S. Proverbs, proverbs, proverbs. Tashkent— 2000